



**MUSTAQILLIKNING DASTLABKI DAVRIDA DAVLATLARARO
ALOQALARNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI**

Raxmatov Abduvali

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Markaziy Osiyo mamlakatlarida mustaqillikning dastlabki davrida davlatlararo aloqalarning shakllanish jarayoni, uning asosiy bosqichlari va rivojlanish xususiyatlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda 1991–2000-yillar davomida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning o'zaro siyosiy-diplomatik, iqtisodiy, savdo, madaniy-gumanitar va xavfsizlik sohalaridagi munosabatlarini shakllantirish jarayonlariga alohida e'tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikning dastlabki yillarida milliy manfaatlar va mintaqaviy ehtiyojlar o'rtasidagi muvozanatni izlash jarayonida davlatlararo aloqalarning dastlabki institutsional va diplomatik asoslarini shakllantirganini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, mustaqillik, davlatlararo aloqalar, diplomatik munosabatlar, tashqi siyosat, mintaqaviy hamkorlik, siyosiy aloqalar, iqtisodiy hamkorlik, xavfsizlik, suv-energetika masalalari, integratsiya, geosiyosat.

Аннотация. В статье комплексно анализируются процесс формирования межгосударственных отношений в странах Центральной Азии в первые годы независимости, его основные этапы и особенности развития. Особое внимание уделяется становлению политико-дипломатических, экономических, торговых, культурно-гуманитарных отношений и сотрудничества в сфере безопасности между Узбекистаном, Казахстаном, Кыргызстаном, Таджикистаном и Туркменистаном в 1991–2000 годах. Результаты исследования показывают, что в первые годы независимости государства Центральной Азии, стремясь согласовать национальные интересы с региональными потребностями, заложили первоначальные дипломатические и институциональные основы межгосударственного взаимодействия.

Ключевые слова: Центральная Азия, независимость, межгосударственные отношения, дипломатические отношения, внешняя политика, региональное сотрудничество, политические отношения, экономическое сотрудничество, безопасность, водно-энергетические вопросы, интеграция, геополитика.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the formation of interstate relations among the Central Asian countries during the early period of independence, focusing on the major stages and key characteristics of this process. Particular attention is paid to the development of political and diplomatic, economic, trade, cultural-humanitarian, and security relations among Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan during 1991–2000. The findings demonstrate that during the early years of independence, the Central Asian states sought to balance their national interests with



regional needs and consequently established the initial diplomatic and institutional foundations for interstate cooperation and regional interaction.

Keywords: *Central Asia, independence, interstate relations, diplomatic relations, foreign policy, regional cooperation, political relations, economic cooperation, security, water and energy issues, integration, geopolitics.*

Mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng Markaziy Osiyo respublikalari tashqi siyosatining yetakchi yo‘nalishlaridan biri sifatida mintaqaning yangi mustaqil mamlakatlari bilan do‘stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlanishida namoyon bo‘lgan. Markaziy Osiyo mamlakatlarining tarixi, madaniyati, tili va dinining birligi mintaqaxalqlarining bir-biriga yaqinlashtirish uchun zamin yaratgan. Yangi tarixiy sharoitlarda vujudga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar mintaqaxalqlarining kelib chiqishi, tarixi, turmush tarzining o‘ziga xosligi va yaqin qo‘shnichilik aloqalariga boshqacharoq munosabat bildirishni taqozo etadi. 1993-yilning yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo mintaqasi davlat rahbarlarining “Toshkent uchrashuvi” tashkil etilgan. Oliy darajada tashkil etilgan mazkur uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo‘stligiga asos solingan[1]. Mintaqadagi besh davlat O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tujikiston, Turkmaniston respublikalari rahbarlari “Markaziy Osiyo Hamdo‘stligi haqidagi bitim”ga imzo chekdi. Ushbu tashkilot doirasidagi masalalarni hal etish uchun Davlatlararo Kengash, Bosh vazirlar, Tashqi ishlar vazirlari, Mudofaa vazirlari Kengashi, Tashkilotning ishchi organi – Ijroiya qo‘mitasi singari institutsional tuzilmalar tashkil etilgan. Shuningdek, a‘zo davlatlar ulushi hisobiga Markaziy Osiyo banki tashkil etilgan[2]. Markaziy Osiyo Hamdo‘stligi tashkilotiga a‘zo davlatlar rahbarlari 1999-yil iyun oyida Qirg‘iziston Respublikasining Bishkek shahrida Bojxona ittifoqini tuzish to‘g‘risida o‘z qarashlarini ilgari surganlar. 2000-yilda esa Markaziy Osiyo respublikalarining davlat rahbarlari tomonidan Tojikiston Respublikasining Dushanbe shahrida “Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo‘stligining 2005-yilgacha mo‘ljallangan integratsion rivojlanish strategiyasi” tasdiqlangan. Mazkur hujjatda iqtisodiy hamkorlikka a‘zo mamlakatlar integratsiyalashuvi jarayoni har bir davlatning o‘z manfaatlaridan kelib chiqadigan obyektiv jarayon ekanligi alohida ta’kidlangan.

Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlarning 2001-yil 28-dekabrda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvi davomida mintaqaviy integratsiya shakllari hamda mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha umumiy harakatlarni muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo‘stligini “Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti”ga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilganlar. 2002-yilning 28-fevralida Almati shahrida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston Respublikalarining davlat rahbarlari “Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti”ni tashkil qilish to‘g‘risidagi shartnomani imzolaganlar. Ushbu uchrashuv chog‘ida tashkilot faoliyatini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan mazkur tashkilot doirasida



qabul qilingan hujjatlarni qayta ko'rib chiqish, ayni paytda harakatda bo'lmagan hujjatlarni bekor qilish taklifi ilgari surilgan. Ta'kidlash joizki, bu davrga kelib tashkilot doirasida qabul qilingan hujjatlar soni 243 tani tashkil qilardi[3]. Shunday qilib Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti Markaziy Osiyodagi keng ko'lamli masalalarni ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan mintaqaviy integratsion tashkilotga aylangan. 2002-yilning 5–6-oktabr kunlarida Markaziy Osiyo Hamkorlik Tashkilotiga a'zo davlat rahbarlarining Dushanbedagi uchrashuvida mintaqaviy integratsiya masalalaridan tashqari Afg'oniston bilan bog'liq muammolar, shuningdek Orol bo'yidagi ekologik holat chuqur o'rganib chiqilib, "orolni qutqarish xalqaro fondi"ning faoliyati chuqur tahlil qilinishi yuqoridagi fikrimiz dalilidir.

2005-yilning 6–7-oktabr sanasida Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlarining Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati kengashida o'tgan davrdagi qilingan ishlar muhokama qilingan. Mazkur kengashda Markaziy Osiyo umumiy bozorini tashkil qilish konsepsiyasi tasdiqlangan. Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkilotining ushbu sammiti Yevroosiyo integratsiyalashuv jarayonidagi burilish nuqtasi bo'lgan. Sababi, O'zbekiston Respublikasi rahbarlari tashabbusi bilan Markaziy Osiyo Hamkorligi va Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati negizida yangi Yevroosiyo Iqtisodiy Hamkorligini shakllantirishga qaror qilingan. Bu ikki tashkilotning maqsad va vazifalari o'rtasida deyarli farq bo'lmay, ularning qo'shilishi natijasida mintaqa jihatdan yanada faol integratsiya uchun yo'l ochilgan. Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston o'rtasida 1995-yilda Bojxona ittifoqi negizida tuzilgan. Ushbu tashkilotning 2006-yilgi Sankt-Peterburg sammitida O'zbekiston unga a'zo bo'lib qo'shilgan. Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyati tashkiloti unga a'zo mamlakatlar o'rtasida integratsiyani rivojlantirishga, yagona umumiy bozorning shakllanishiga, Bojxona ittifoqiga, erkin savdo zonasining shakllanishiga ko'maklashadi. O'zbekiston respublikasi o'z iqtisodiy manfaatlariga zid bo'lganligi sababli 2008-yilda ushbu tashkilotdan chiqqan. Bugungi kunda tashkilotga Markaziy Osiyo mintaqasidan ikki mamlakat, ya'ni, Qozog'iston va Qirg'iziston, Rossiya, Belarusiya, Armaniston davlatlaridan iborat[4].

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari tomonidan 1993-yil Qozog'iston Respublikasining Qizil O'rda shahrida, 1994-yil Nukus shahrida, 1995-yil Turkmanistonning Doshhovuz shahrida, 1995-yilda yana Nukus shahrida Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan uchrashuvlar o'tkazilib, bu borada amaliy ishlar olib borilgan. 1999-yilda Turkmanistonning Ashxobod shahrida Orol dengizini qutqarish jamg'armasining majlisi bo'lib o'tgan. Mazkur majlisda Markaziy Osiyodagi ekologik vaziyatni barqarorlashtirish borasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilinib, davlat rahbarlari o'zaro hamkorlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro miqyosdagi masalalar yuzasidan fikr almashganlar.

Bugungi kunda xalqaro maydonda globallashuv jarayoni bilan bir qatorda mintaqaviylashuv jarayoni ham ro'y bermoqda. Mintaqaviylashuv terminiga e'tibor qaratilganda, u muayyan mintaqaning koordinatsiya (ya'ni mintaqaviy hamkorlik) va subordinatsiya (integratsiya) asosida yaqinlashuvini anglatadi. Bunda Koordinatsiya o'zaro





mintaqaviy hamkorlik asosida davlatlarning bir–biri bilan amalga oshirishini anglatga, subordinatsiya muayyan organning integratsiyaga a'zo bo'lgan davlatlardan yuqorida turishini nazarda tutadi. Xalqaro tajribada dunyo mamlakatlari mintaqaviy integratsiyaga kirishishdan oldin mintaqaviy hamkorlik asosida o'zaro munosabatlarini mustahkamligini ko'rish mumkin. Xususan, Yevropa Ittifoqi, ASEAN (Janubi–Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi), Arab Davlatlari Ligasi, Afrika Ittifoqi kabi integratsion birlashmalar shular jumlasidandir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o'z mustaqilligidan so'ng o'zlarining integratsion tuzilmalarini tuzishga uringanliklari, bunday tashkilotlarni o'zaro ishonch va bag'rikenglik tamoyillariga asoslanib yondashganini ko'rsatadi. Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining integratsiyasi to'g'risida so'z borganda bu borada O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari yetuk ahamiyat kasb etadi:

“Mintaqada tinchlik, barqarorlik va xavsizlikka tahdid soluvchi ichki va tashqi xatarlarning yoyilishiga yo'l qo'ymaslik, ularning oldini olish uchun Markaziy Osiyo mamlakatlarining sa'y–harakatlari, salohiyat va imkoniyatlarini muvofiqlashtirish va birlashtirish, o'zaro hamjihatlikni mustahkamlash g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi”[5].

Markaziy Osiyoning O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston Respublikalari o'rtasida 1994-yilning aprel oyida Yagona Iqtisodiy Hududni barpo etish to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi mintaqada o'zaro hamkorlik va integratsion jarayonlarni rivojlantirish uchun qo'yilgan dastlabki jiddiy qadamlar bo'lgan. Ushbu shartnomani imzolashdan asosiy maqsad tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi guruhining mintaqa davlatlari bo'ylab erkin harakat qilishini ta'minlash, kelishilgan soliq, budjet, narx, bojxona va valyuta siyosatini yuritishdan iborat bo'lgan[6]. 1998-yilning 26-mart sanasida Tojikiston Respublikasi ham mazkur shartnomaning to'laqonli a'zolari qatoriga qo'shilgan.

Qozog'iston, O'zbekiston va Qirg'iziston Respublikalari tomonidan 1998-yilning 17-mart sanasida Sirdaryo havfzasining suv–energetika resurslaridan foydalanish to'g'risidagi uzoq muddatli shartnoma imzolangan. Bir yildan so'ng mazkur shartnomaga Tojikiston Respublikasi ham qo'shilgan.

Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgandan keyingi davrda o'zaro integratsion birlashmalar tuzishga urinib ko'rgan. Ushbu integratsion birlashmalarning tenglik va tolerantlik tamoillariga asoslangan bo'lishiga qaramay, kutilgandek natija bermagan. Bu bir necha sabablat natijasida integratsion jarayonlar o'sishiga yo'l qo'ymadi:

Birinchi, mintaqa mamlakatlari integratsion birlashma tuzish dinamikasini juda tezlashtirib yuborgan. Ular jahon tajribasida sinalgan avval koordinatsiya, keyin esa subordinatsiya usulidan foydalanmaganlar.

Ikkinchi, mustaqillikdan keyingi davrda deyarli bir xil salohiyatga va imkoniyatga ega mintaqa mamlakatlari keyingi davr mobaynida turli xil rivojlanish yo'llarini boshdan kechirgan. Misol tariqasida Qozog'iston xalqaro yordamlar va kreditlar evaziga juda tez rivojlanish yo'lini tanlab, iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha mintaqa davlatlaridan ancha ilgarilab ketgan. O'zbekiston esa iqtisodiy rivojlanishning tadrijiy yo'lini tanlab, bosqichma–





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bosqich rivojlanib bordi. Qirg'iziston "demokratik o'zgarishlar" ta'siriga tushib qolgan bo'lsa, Tojikistonning iqtisodiy rivojlanishiga fuqarolar urushi ta'sir qilgan. Ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyo davlatlari ichida Turkmaniston integratsion jarayonlarga ummuman qo'shilmay, iqtisodiy rivojlanishni neytral yo'lini tanlagan. Yuqoridagi jihatlarga ko'ra, mintaqa mamlakatlarining manfaatlari mutanosiblik xarakteriga ega bo'lmay, integratsiya jarayonini to'xtatib qo'ygan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ilhomov Z.A. O'zbekiston tarixi. 2020.
2. To'xliyev N., Haqberdiyev Q. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi asoslari" nashriyoti. 2006.
3. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi: Milliy istiqlol davri. Toshkent: O'qituvchi. 2007.
4. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Toshkent: O'zbekiston. 2001.
5. Usmonov Q. O'zbekiston tarixi: Milliy istiqlol davri. Toshkent: O'qituvchi. 2007.